



UZOQ MUDDATLI DAVOLANAYOTGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH SAMARALI TA'LIM VA IJTIMOYILASHUV SHARTI SIFATIDA

Jumayeva Shohsanam Abduraxmon qizi

“Mehrlı maktab” davlat ta’lim muassasasi

Surxondaryo viloyati filiali tarbiyachisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20020649>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-aprel 2026 yil

Ma’qullandi: 28-aprel 2026 yil

Nashr qilindi: 30-aprel 2026 yil

KEYWORDS

gospital pedagogika, tanqidiy fikrlash, maktabgacha ta’lim, Mehrlı maktab, ijtimoiylashuv, kognitiv rivojlanish, muammoli vaziyatli o’yinlar, onkogematologiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada uzoq muddatli davolanishda bo’lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik va psixologik ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, gospital ta’lim sharoitida “Mehrlı maktab” loyihasi doirasida bolalarning kognitiv passivligini yengish, ularni ijtimoiylashtirish va tibbiy muolajalarga ongli yondashuvini shakllantirish usullarini yoritib beradi. Maqolada muammoli vaziyatli o’yinlar, savol-javobga asoslangan tahliliy muloqot va vizualizatsiya metodlarining samaradorligi ilmiy asoslab berilgan.

So’nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim va sog’liqni saqlash tizimlarini integratsiya qilish, ayniqsa, bolalar onkogematologiyasi sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan gumanistik tamoyillar asosida uzoq muddatli davolanishda bo’lgan bolalarning uzluksiz ta’lim olish huquqini ta’minlash maqsadida “Mehrlı maktab” loyihasining yo’lga qo’yilishi gospital pedagogika rivojida yangi davrni ochib berdi. Bugungi kunda onkogematologik kasalliklar bilan kurashayotgan maktabgacha yoshdagi bolalar nafaqat tibbiy muolajalar, balki ularning intellektual va emotsional rivojlanishini kafolatlovchi maxsus pedagogik muhit bilan ham qamrab olinmoqda.

Gospital sharoitda uzoq muddatli davolanish jarayoni maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy izolyatsiya, harakat faolligining cheklanishi va kognitiv passivlik kabi salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu muammoni bartaraf etishda bolalarda tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirish muhim strategik yechim hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash bolani atrof-muhitdagi o’zgarishlarga moslashishga, savol berish orqali tahliliy yondashishga va hatto og’ir tibbiy muhitda ham mustaqil qaror qabul qilish orqali sub’yektlik pozitsiyasini saqlab qolishga o’rgatadi. Bu esa bolaning davolanish motivatsiyasini oshirib, ijtimoiylashuv jarayonini jadallashtiradi.

Mazkur jarayonning huquqiy va pedagogik asoslari xalqaro hamda milliy hujjatlarda o’z aksini topgan. Xususan, “Bola huquqlari to’g’risidagi konvensiya” [1] har bir bolaning sog’lig’idan qat’iy nazar bilim olish huquqini kafolatlasa, O’zbekistonning “Ilk qadam” davlat dasturi [3] bolalarda mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni asosiy maqsad qilib belgilaydi. Akademik Ye. Yamburg ta’kidlaganidek, gospital pedagogika shunchaki o’qitish

emas, balki bolaning hayotga bo'lgan qiziqishini qaytarishdir [4]. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, turli faoliyat turlari, o'yin va ijodiy mashg'ulotlar bolalarning kayfiyatini yaxshilab, ularning davolanish jarayoniga munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi [5]. Mazkur faoliyatlar bolalarni faollikka undab, ularning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali tanqidiy fikrlashning shakllanishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda (3–7 yosh) tanqidiy fikrlash hali shakllanish jarayonida bo'lib, u asosan “nima uchun?”, “qanday?”, “nima sababdan?” kabi tizimli savollar berish va olingan ma'lumotlar asosida oddiy mantiqiy xulosalar chiqarish orqali namoyon bo'ladi. Gospital sharoitda bu jarayon yanada murakkab va muhim ahamiyat kasb etadi. L. Vigotskiy ta'kidlaganidek, bolaning tafakkuri va nutqi uning ijtimoiy muhiti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi. Shu sababli, shifoxona muhitidagi cheklovlar sharoitida bolaning fikrlash doirasini kengaytirish va unga voqea-hodisalarga tanqidiy yondashishni o'rgatish, uning kognitiv turg'unlikka tushib qolishining oldini oladi.

Gospital pedagogikada tanqidiy fikrlash shunchaki akademik ko'nikma emas, balki bolaning o'z holatini anglash va tibbiy muolajalarga ongli yondashish vositasidir. Kasallik va davolanish jarayonlari haqida tahliliy ma'lumotga ega bo'lgan bola qo'rquv va xavotirni osonroq yengadi. S. Sharikov tadqiqotlarida qayd etilganidek, shifoxona sharoitida bolaning sub'yektlik pozitsiyasini qo'llab-quvvatlash uning ta'limiy imkoniyatlarini va davolanish samaradorligini oshiradi [6]. Tanqidiy fikrlash ko'nikmasi bolaga shifokorlar harakatini tushunishga, muolajalar nima uchun zarurligini anglashga va bu jarayonda passiv ob'yektdan faol ishtirokchiga aylanishiga yordam beradi.

Ushbu yosh davrida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari bolaning axborotni tahlil qilish, baholash va asosli qaror qabul qilish qobiliyatiga tayanadi. F. Qudratova fikricha, tanqidiy fikrlash tug'ma bo'lmay, aynan pedagogik ta'sir va muammoli vaziyatlar orqali shakllantiriladi [4]. Gospital tarbiyachi bolaga kundalik hayotda (masalan, ovqatlanish tartibi, dori qabul qilish vaqti yoki o'yin faoliyati) tanlov imkoniyatini berish va sabab-oqibat bog'liqligini tushuntirish orqali unda mustaqil mulohaza yuritish poydevorini yaratadi. Bu esa o'z navbatida, bolaning nafaqat ta'limiy, balki hayotiy ko'nikmalarining ham shakllanishiga xizmat qiladi [7].

Gospital ta'lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali vositasi — bu muammoli vaziyatli o'yin texnologiyalaridir. Masalan, “Agar sehrli tayoqchang bo'lsa, shifoxonani qanday o'zgartirarding?” kabi ochiq savollar bolani xayoliy tahlil qilishga va o'z ehtiyojlarini kreativ ifodalashga undaydi. U. Karimova ta'kidlaganidek, o'yin asosidagi metodlar bolada axborotni taqqoslash va xulosa chiqarish kompetensiyasini shakllantirishda bosh omil bo'lib xizmat qiladi [7]. Bunday o'yinlar davomida bola shunchaki o'ynamaydi, balki shifoxona muhitini o'z dunyoqarashi orqali qayta loyihalashtiradi, bu esa uning kognitiv faolligini oshiradi.

Pedagogik muloqot jarayonida savol-javobga asoslangan tahliliy muloqot usulidan foydalanish bolalarning ertak qahramonlari yoki badiiy obrazlar xatti-harakatlariga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantiradi. Ertaklardagi muammoli vaziyatlarni tahlil qilish orqali bola “Nima uchun qahramon bunday yo'l tutdi?”, “Boshqacha yo'l tutsa nima bo'lar edi?” kabi savollar atrofida mulohaza yuritadi.

J. Mamadiyorov taklif etgan “chaqiriq-tushunish-mulohaza” modeli [8] aynan mana shu bosqichda bolaning mustaqil fikrlarini tizimlashtirishga yordam beradi. Bu usul bolada nafaqat mantiqiy, balki axloqiy tahlil ko'nikmalarini ham rivojlantirib, uning ijtimoiy ongini o'stiradi.

Vizualizatsiya metodlari, xususan, “Nima noto'g'ri?” yoki “Mantiqsiz rasm” kabi interaktiv topshiriqlar hospital sharoitdagi bolaning diqqatini jamlash va tafakkurini charxlashda yuqori natija beradi. Rasmlardagi xatoliklarni topish va ularni asoslash jarayonida bola kuzatuvchanlik hamda dalillash ko'nikmasini namoyon etadi. N. Shomurodova tomonidan qayd etilganidek, maktabgacha ta'limda vizual didaktik materiallar bolaning intellektual salohiyatini yuzaga chiqaruvchi muhim mexanizmdir [11]. Ushbu metodlar bolani zerikarli shifoxona palatasidan intellektual izlanishlar maydoniga olib chiqib, uning emotsional holatini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Gospital sharoitda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishi bolaning ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtiruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Tanqidiy fikrlaydigan bola o'zini qurshab turgan notanish muhitni tahlil qilish orqali tengdoshlari bilan muloqotga kirishishda tashabbus ko'rsatadi va ijtimoiy aloqalarni osonroq o'rnatadi. I. Doluev va hammualliflar ta'kidlaganidek, hospital muhitda bolaning kognitiv faolligi uning emotsional barqarorligi va atrofidagilar bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyatini belgilaydi [8]. Bunday bolalar shifoxona xodimlari bilan muloqotda ham sub'yektiv pozitsiyani egallaydi: ular muolajalarning mazmuni haqida savol berishdan qo'rqmaydi, bu esa tibbiy xodimlarga nisbatan ishonchni orttirib, davolanish jarayonidagi psixologik to'siqlarni va qo'rquvni bartaraf etadi.

Ushbu yondashuvning pirovard natijasi bolaning o'ziga bo'lgan ishonchining ortishi va shaxsiy “men”ning barqarorlashuvidir. Tanqidiy fikrlash orqali bola o'zining kasalmand va passiv ob'yekt emas, balki hayotiy vaziyatlarni boshqara oladigan va mustaqil mulohaza yuritadigan faol shaxs ekanligini anglaydi. F. Qudratova xulosalariga ko'ra, erta yoshdan shakllantirilgan tanqidiy tafakkur bolaning nafaqat akademik muvaffaqiyatiga, balki uning kreativligi va hayotiy qiyinchiliklarga nisbatan chidamliligiga mustahkam poydevor yaratadi [4]. Shunday qilib, hospital pedagogika tizimidagi tarbiyachining faoliyati bolani nafaqat maktabga tayyorlash, balki uni murakkab hayotiy sharoitlarda o'zini anglagan holda ijtimoiylashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, uzoq muddatli davolanishda bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – bu shunchaki ta'limiy maqsad emas, balki bolaning hayotiy turg'unligini ta'minlovchi zaruriyatdir. Gospital pedagogika sharoitida qo'llaniladigan muammoli o'yinlar, tahliliy suhbatlar va vizual topshiriqlar bolani kasallik keltirib chiqargan psixologik tushkunlikdan himoya qiladi. Tanqidiy tafakkurning shakllanishi bolada “passiv bemor” obrazidan “faol o'rganuvchi” obraziga o'tish imkonini yaratib, uning kognitiv va emotsional ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi tarbiyachilarning hospital sharoitdagi faoliyati bolaning nafaqat bugungi sog'lig'i, balki kelajakdagi ijtimoiylashuvi uchun ham poydevor bo'ladi. Tanqidiy fikrlash orqali o'ziga bo'lgan ishonchi ortgan va atrof-muhitni mantiqiy tahlil qilishni o'rgangan bola shifoxonadan so'ng oddiy hayot maromiga va maktab ta'limiga ancha tez moslashadi. Shu sababli, hospital ta'lim jarayoniga innovatsion intellektual metodlarni tizimli ravishda tatbiq etish uzoq muddatli davolanayotgan bolalar hayot sifatini yaxshilashning samarali pedagogik sharti bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya: [Xalqaro hujjat] // 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan. – 20 s.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta'lim to'g'risida: [O'RQ-637-son] // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi: [Takomillashtirilgan ikkinchi nashr]. – Toshkent, 2022. – 102 b.
4. Ямбург Е. А. Госпитальная педагогика: Проблемы и перспективы развития // Директор школы. – Москва, 2024. – № 2. – С. 35-42.
5. Куряева Ирина Викторовна. Альтернативная форма дошкольного образования для детей, находящихся на длительном лечении в стационаре медицинских учреждений // Zamonaviy ta'limda fan va innovatsion tadqiqotlar– 2024. – №7 (2-son 7-to'plam).
6. Шариков С. В. Педагогическая поддержка образовательных возможностей детей, находящихся на длительном лечении в медицинских стационарах // Альманах № 40. Комплексная реабилитация детей с ОБЗ и детей-инвалидов. – 2023.
7. Karimova U. K. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish: Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va interaktiv metodlar // «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» onlayn konferensiya materiallari. – 2024.
8. Mamadiyrov J., Ibrohimova I. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi // Modern education and development. – 2026. – № 47. – B. 92-99.
9. Qudratova F. M. Tanqidiy fikrlash tushunchasi va uni maktabgacha yoshda rivojlantirishning psixologik pedagogik asoslari // Universal Science Perspective (USP). – 2024.
10. Abduraxmonova Y. N. Axborotlashgan jamiyat sharoitida boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari // Ta'lim va taraqqiyot. – 2025. – № 2. – B. 12-18.
11. Shomurodova N. B. Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi masalalari // Maktabgacha va maktab ta'limi. – 2025. – № 12. – B. 24-29.